


QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASIDA SOG‘LIQNI SAQLASH



2018 yil 1 yanvar holatiga Qoraqalpog‘iston Respublikasida 265 ta ambulatoriya poliklinika muassasasi mavjud bo‘lib, ularning 44,9 foizini (119 ta) kichik tibbiyot korxonalari va mikrofirmalar tashkil etadi. Ularning soni 2010 yilga (301 ta) nisbatan 1,1 martaga kamaydi. Shu bilan birgalikda, shifoxona muassasalari soni 1,8 martaga kamaydi. 2010 yilda 50 ta shifoxona muassasalari faoliyat yuritgan bo‘lsa, 2017 yilda ularning soni 41 tani tashkil etib, ulardan 4,9 foizi (2 ta) kichik tadbirkorlik sub‘ektlaridan iborat bo‘ldi.

Shifoxona, ambulatoriya poliklinika muassasalari soni (2010-2017 yillar)

1-rasm



Shifoxona, ambulatoriya poliklinika muassasalarining asosiy ko'rsatkichlari (2010-2017yillar)

1-jadval

| | 2010 y. | 2011 y. | 2012 y. | 2013 y. | 2014 y. | 2015 y. | 2016 y. | 2017 y. |
|--|---------|---------|---------|---------|---------|---------|---------|---------|
| Shifoxona muassasalari soni | 50 | 48 | 51 | 46 | 41 | 42 | 42 | 41 |
| Shifoxona o'rinlari soni, ming o'rin | 8,6 | 8,6 | 8,4 | 7,8 | 7,5 | 7,3 | 7,3 | 7,3 |
| Aholining shifoxona o'rinlari bilan ta'minlanganligi, har 10 ming aholiga nisbatan o'rinlari bilan | 51,3 | 50,6 | 48,9 | 45,1 | 42,5 | 40,5 | 40,2 | 39,4 |
| Ambulatoriya poliklinika muassasalari soni, birlik | 50 | 48 | 51 | 46 | 41 | 42 | 42 | 41 |
| Quvvati, bir smenada qatnovlar soni, ming | 22,9 | 23,1 | 23,2 | 23,3 | 23,1 | 23,4 | 23,6 | 22,0 |
| 10 ming aholiga nisbatan hisoblangan ambulatoriya poliklinika muassasalari quvvati | 136,5 | 136,3 | 135,8 | 134,4 | 131,1 | 130,7 | 130,0 | 119,6 |
| Ambulatoriya poliklinika muassasalariga qatnovlar soni, ming kishi | 13264,7 | 13594,5 | 11988 | 14422,7 | 15197,1 | 15118,4 | 15654,3 | 15665,4 |



2010 yilda aholiga tibbiy xizmat ko'rsatish sohasida 3,2 ming shifokor faoliyat yuritgan bo'lsa, 2018 yil 1 yanvar holatiga ularning soni 4,3 ming kishini tashkil etdi. O'rta tibbiyot xodimlari soni esa 2010 yilga (15,9 dan 17,5 ming kishigacha) nisbatan 10 foizga ko'paydi. 1- jadval ma'lumotlari bo'yicha har 10 ming aholiga nisbatan hisoblanganda shifokorlar soni 19,8 (2010y.) dan 23,1 (2017y.) gacha, o'rta tibbiyot xodimlari soni esa mos ravishda 94,4 (2010y.) dan 94,8 (2017y.) gacha ko'paygan.

Aholining tibbiyot xodimlari bilan ta'minlanganligi

(2010 -2017 yillar) (2-jadval)


2-jadval

| | Jami shifokorlar soni (ming) | 10000 aholiga to'g'ri keladigan shifokorlar soni | Jami o'рта tibbiyot xodimlari soni (ming) | 10000 aholiga to'g'ri keladigan o'рта tibbiyot xodimlari soni |
|---------|------------------------------|--|---|---|
| 2010 y. | 3,3 | 19,8 | 15,8 | 94,4 |
| 2011 y. | 3,4 | 19,9 | 16,4 | 96,8 |
| 2012 y. | 3,3 | 19,6 | 16,5 | 96,4 |
| 2013 y. | 3,4 | 19,8 | 16,3 | 94,2 |
| 2014 y. | 3,5 | 19,9 | 16,6 | 94,1 |
| 2015 y. | 3,8 | 21,4 | 17,1 | 95,5 |
| 2016 y. | 4,2 | 23,2 | 17,2 | 94,9 |
| 2017 y. | 4,3 | 23,1 | 17,5 | 94,8 |

Bitta shifokorga to'g'ri keladigan aholi soni

(2010 -2017yillar) (2-rasm)


2-rasm



Bitta o'рта tibbiyot xodimiga to'g'ri keladigan aholi soni

(2010 -2017 yillar) (3-rasm)

3-rasm



Qoraqalpog'iston Respublikasi
statistika boshqarmasi
Ijtimoiy soha statistikasi bo'limi
Tel.: (61) 222-79-83
(71) 230-82-04